

SEMINAR BO‘LIB O‘TDI



Avval xabar berganimizdek, Davlatimiz rahbarining joriy yil 16-17-noyabr kunlari viloyatimizga tashrifi davomida “Ma’naviyat sektori”ni tashkil etish bo’yicha vazifalar belgilab berilgan edi.

Bugun Termiz shahar 2-sektorga qarashli “Shodlik” mahallasidagi 3-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabida va 8-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida “Ma’naviyat sektori” faoliyatini tashkil etish bo’yicha amaliy seminar o’tkazildi.

Unda Termiz shahar hokimining o’rinbosari K.Ashurov, Termiz davlat universiteti prorektori O.Shofiyev, Termiz shahar prokuraturasi mas’ullari, shahar “Ma’naviyat va ma’rifat kengashi” a’zolari, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari, umumiy o’rta ta’lim maktablari direktorlari va ularning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosarlari, xalq ta’limi tizimi xodimlari va sektorlar mas’ullari, mahalla faollari va OAV vakillari ishtirok etdi.



Seminarda “Ma’naviyat sektori” xonasini jihozlash va ijro hujjatlarini yuritish tartiblari, sektor a’zolarining asosiy vazifalari va ularni amalga oshirishning samarali usullari, sektor faoliyatini tizimli yo’lga qo’yish uchun amalga oshiriladigan ishlar va rejalar to’g’risida batafsil tushuntirishlar berilib, ishtirokchilar tomonidan o’zaro tajriba va fikr-mulohazalar almashishdi.



Amaliy seminar yakunida barcha ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat sektori" faoliyatini namunali tarzda tashkil etish rejalashtirilib, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.